



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



METAFORA MEXANIZMINING MURAKKAB LINGVO-KOGNITIV SHAKLLANISHI VA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNING O'RGANILISH NAZARIYALARI

Rustamova Dilfuzaxon

*FarDu 2-bosqich doktoranti, Qo'qon Universiteti ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
rustamovadilfu7755@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu maqolada metafora mehanizmining murakkab lingvo-kognitiv shakllanishi va bolalar nutqini rivojlanishdagi o'rning o'rganilish nazariyalari yoritib berilgan. Til kognitiv jarayonni hosil qiluvchi asosiy vositalardan biridir. U inson sifat va xususiyatlarini boshqa turlarga qaraganda tafakkurni, qabul qilishni, xotira, masalalar yechimi, aql va qobiliyatni taqozo etadi va ishga soladi.

Kalit so'zlar: lingvo-kognitiv, generativ semantika, kognititsiya, kommunikativ funksiya, semantik qirra.

Jamiyatda kamol topayotgan shaxs o'zining rivojlanishi uchun olamda mavjud bilimlarni egallahsga harakat qiladi. Inson rivojlanishi jismoniy, aqliy, hissiy kabi turlarga bo'linib, jismoniy rivojlanish fiziologik jarayon hisoblanadi va u o'z-o'zidan amalgalashuvchi shartsiz refleksdir. Lekin insonning aqliy va hissiy rivojlanishi, albatta, insonning yashab turgan jamiyatiga bog'liq bo'ladi, chunki yetuk, barkamol shaxs faqatgina jamiyatda, ijtimoiylashgan holatdagina kamol topadi. Bola dunyoga kelib, o'sishni boshlar ekan unga ota-onasi va boshqa insonlar tomonidan borliqdagi dastlabki bilimlar berib boriladi. Har qanday bolamimg rivojlanishi uning nutqida o'z aksini topadi, chunki nutq orqali o'zi egallagan bilimlarni o'zgalarga yetkazish imkoniyati mavjud. Bolaga bilim berish ham aynan borliqda mavjud yaratiqlarni nomini o'rgatishdan boshlanadi. Shunday qilib bola ilk kognitiv jarayonni amalgalashuvchi oshira boshkaydi. U o'zi o'rgangan narsa noimlarini shu narsani ko'rish, eshitish va boshqa sezgi retseptorlari orqali xotirasida saqlab qoladi. Demak, kognitiv bilish jarayoni ilk bolalik davrlaridayoq qaror topadi. Rivojlanishning miqdor bosqichidan sifat bosqichiga ko'tarilib borayotgan bola yangidan-yangi so'zlarni o'zlashtira boshlaydi. Tilimizda mavjud so'zlarning katta qismi ko'p ma'noli ekanligini hisobga olsak, ilk bilimlar egallanayotgan davrdan boshlab biz metafora orqali yasalgan yangi so'zlarni o'zlashtirib boramiz. Buning o'ziyoq metaforaning murakkab lingvo-kognitiv xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Zamonaviy fan barcha aqliy qobiliyat, ijod va obrazli fikrni metaforik tafakkur va metaforik bilimga bog'laydi. Kognititsiya davomida sub'ekt o'z xotiralarini ishga solidi, ko'pincha mantiqan bir-biridan yiroq ikki ob'ektni aniqlab, ularni shartli ma'noviy "ip"lar bilan bog'laydi-metaforani hosil qiladi. Pirovardida, tafakkur mahsuli real muloqot jarayoniga ko'chadi: so'zlovchi metaforizatsiya asosida metaforik obrazni yaratadi, bu obraz esa, albatta, mavjud va barqarorlashgan bilimlar ustida shakllanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Til kognitiv jarayonni hosil qiluvchi asosiy vositalardan biridir. U inson sifat va xususiyatlarini boshqa turlarga qaraganda tafakkurni, qabul qilishni, xotira, masalalar yechimi, aql va qobiliyatni taqozo etadi va ishga soladi.

Metaforani jiddiy va chuqr o‘rganish XX asrdagina ko‘hna hind, xitoy faylasuflarining asarlarini o‘rganish evaziga amalga oshirila boshlandi. Antik davr falsafasining tadqiq davri gullab-yashnagan XX asrda metafora tilning kommunikativ, nominativ, bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi¹. Shu orqali metaforaning nafaqat til va nutqdagi o‘rni ochib berildi, balki tilshunoslikda uning nazariy asoslari ham yaratilindi. Dastlab, metafora faqatgina ritorika doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik u tilshunoslikning tadqiqot ob’ektiga aylandi.

XX asrda metaforani o‘rganuvchi qiyosiy nazariya J.Serl va M.Blek tomonidan jiddiy tanqidga uchradи. J.Serl metaforani ikki semantik ma’noning verbal, ya’ni metaforik ifoda va aynan bo‘lgan kontekstual qurshovning ta’sirlashuvi yoki oppozitsiyasiga bog‘liq deb ta’kidladi². M.Blek esa, fanda birinchilardan bo‘lib, metaforani “qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzaga keltiruvchi” sifatida ta’rifladi³. Bu ikki olimning fikrlari orqali metforani o‘rganishda uning semantik nuqtayi nazardan ham tadqiq etilishi lozimligi isbotlandi.

XX asrning 60-yillarida generativ semantikaning rivojlanishi metaforaning kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy, volyuntativ (ta’sir ko‘rsatish funksiyasi), poetik va boshqa qator xususiyatlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etdi (J.Kats, P.Postal, J.Lakoff⁴). Metaforaning tilshunoslikdagi roli ahamiyatini chuqr o‘rganish rivojlna boshladi.

1930-yillarga kelib, ingliz tilshunosi A.A.Richards metaforani tashkil etuvchilarni: “mazmun, mohiyat” (tenor) va “qobiq, majoz (obraz)” (vehicnle) nomlari bilan atashni taklif qildi. A.A. Richards o‘z xulosalarida metaforani tilning lisoniy kombinatsiyalardan chuqurroq qatlamlarda joylashuvchi va so‘zlarning negizida mavjud bo‘luvchi konseptual strukturalarning o‘zaro aloqasi jarayonida yuzaga chiqadigan organik fenomen deb atadi.

D.S.Xudoyberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-ma’daniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi. Olima ularni matnning predsedent shakllari sifatida baholaydi⁵ hamda kognitiv metaforalarning so‘z, so‘z birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga⁶ ajratishini qayd etadi.

Metaforaning funksiyalari serqirra bo‘lib, ilmiy va badiiy ko‘lamda yanada to‘liqroq aks etadi:

¹ Aristotel. Poetik. M. 1984

² Serl j. Metafora// Teoriya metaphor.- M.: Progress, 1990

³ Blek M. Metafora// Teoriya metaphor .- M.: Progress, 1990

⁴ Lakoff J., Jonson M. Biz yashayotgan metafora. – M.: Progress, 1987.

⁵Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – B.18.

⁶ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2012, 1-son. 36-b.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



1. Taqqlashlari orqali fikr aniqligiga erishtiradigan metafora.
2. Nutqning emosional mohiyatini shakllantiradigan metafora.
3. Tejamkorlikni ta'minlaydigan metafora.
4. Kognitiv-semantik ahamiyat kasb etadigan metafora.

Bugungi zamonaliv tilshunosligimizda metaforaning ilmiy-amaliy ahamiyati oshib borayotganini kuzatib borishimiz mumkin. Xususan, kognitologiya fani nuqtai nazaridan kognitiv metafora insonning o‘z bilimlarini namoyon qilishi va konseptuallashtirishi usullaridan biri hisoblanib, uning mohiyati bir ob’ektni boshqa bir ob’ekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iboratdir⁷. Ushbu keltirilgan ilmiy qarashlarning o‘ziyoq metaforaning barcha turlarida kognitiv xususiyat mavjud ekanagini isbotlaydi.

Har qanday bilim rivojlanib oddiydan murakkabga qarab o‘sib borgani singari metaforaning kognitivlik xususiyati ham rivojlanib murakkab lingvo-kognitiv mehanizm sifatida shakllanib ulgurgan. Biz yuqoridaq bob va qismlarda metaforaning bir qancha turlari mavju ekanligini sanab o’tdik. Xususan, oddiy va konseptual metaforalar, ekspressivlik mavjud va ekspressivlik mavjud bo‘lmagan metaforalar, poetik va lingvistik metaforalar. Ushbu turdagagi metaforalarning barchasida kognitivlik xususiyati mavjud, lekin ularning murakkablik darajasi har xil. Masalan: oddiy metaforalarda ma’no ko‘chirilganda ma’nosini ko‘chayotgan tushunchaning faqatgina bitta xususiyati ikkinchi so‘ga ko‘chiriladi “qozonning qulog‘i” oddiy metafora bunda inson tana a’zosi bo‘lgan “qulog” va qozonning qulog‘i faqatgina shakl xususiyatidan bir-biriga o‘xshash, konseptual metaforada esa bir necha o‘xshash xususiyatlar orqali ma’no ko‘chadi “g‘azab bu olov” va bunday metaforalar poetik xususiyat kasb etib, insonga hissiy ta’sir ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bundan ko‘rinadiki oddiy metaforalar faqatgina sodda birgina o‘xshashlik orqali ko‘chib, insonlarga ekspressiv ta’sir ko‘rsatmaydi va poetik nutqda yashamaydi. Konseptual metaforalar esa ekpressiv hissiy ta’sir kuchiga ega va poetik nutqda mavjuddir. Ikkala metaforalar orqasidagi funksiyalarning soni va ahamiyati uning kognitivlik xususiyatini ham oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib boradi. Demak, tilimizdagi barcha metaforalar kognitiv xususiyatga ega, ular olamni o‘xshashliklar orqali bilishga ko‘maklashadi. Lekin murakkab rivojlangan lingvo-kognitiv metaforalar insonga bilim berish bilan birga ramziy tafakkur qilishga undaydi, hissiy ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aristotel. Poetik. M. 1984.
2. Serl j. Metafora// Teoriya metaphor.- M.: Progress, 1990.
3. Blek M. Metafora// Teoriya metaphor . - M.: Progress, 1990.
4. Lakoff J., Jonson M. Biz yashayotgan metafora. – M.: Progress, 1987.

⁷ Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 387-415





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



5. Xudoyberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – B.18.
6. Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 2012, 1-son. 36-b.
7. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 387-415

